

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ**Nazarov Elbek Shermamatovich**

Termiz davlat universiteti

Yuridik faulteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18068043>

Annotatsiya. Ushbu maqolada korrupsiyaning mohiyati, shakllari, jamiyat va davlatga zarar keltirishi hamda bu illatga qarshi kurashish yo'llari tahlil qilinadi. Avvalo, korrupsiyaning nimadan iboratligini mansab vakolatidan foydalanganlik, poraxo'rlik, manfaatlar to'qnashuvi kabi shakllarda namoyon bo'lishini ochib beriladi. Shundan so'ng maqolada zamonaviy O'zbekiston amaliyotlaridan misollar keltirilib, davlat boshqaruvi, moliyaviy soha va ijtimoiy institutlar ichidagi xavfli "qorong'i iqtisodiyot" va yashirin pullik aloqalar masalalariga urg'u beriladi. Shuningdek, korrupsiya bo'yicha statistik ma'lumotlar va ushbu muammo bo'yicha xalqaro tajriba o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, manfaatlar to'qnashuvi, halollik, qonun ustuvorligi, adolat, shaffoflik, ochiqlik, fuqarolik jamiyati, javobgarlik, davlat boshqaruvi, milliy strategiya, xalqaro hamkorlik, profilaktika, BMT konvensiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ijtimoiy islohotlar.

Kirish.

Hozirgi globallashuv davrida korrupsiya nafaqat alohida mamlakatlar, balki butun insoniyat taraqqiyotiga tahdid solayotgan eng dolzarb muammolardan biridir. Korrupsiya davlat boshqaruvi tizimining ishonchliligini susaytiradi, iqtisodiy o'sishga to'sqinlik qiladi, fuqarolarning adolat va tenglikka bo'lgan ishonchini zaiflashtiradi. "Korrupsiya" so'zi lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "buzilish", "buzmoq", "yo'ldan ozdirish" degan ma'noni anglatadi. Korrupsiya bu mansab vakolatini shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilish, pora olish yoki berish, davlat resurslaridan noqonuniy foydalanish, shuningdek, qaror qabul qilish jarayonida adolatsizlikka yo'l qo'yish kabi holatlarni o'z ichiga olgan salbiy ijtimoiy hodisadir.[1] Oddiy qilib aytganda, korrupsiya bu hokimiyat yoki mansabdan shaxsiy foyda olish uchun foydalanishdir.

Korrupsiya nafaqat davlat boshqaruvi sohasida, balki iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, sud-huquq tizimi, biznes va boshqa ko'plab sohalarda yuz berishi mumkin. Shu bois bugungi kunda butun dunyoda, xususan, O'zbekistonda ham korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida so'nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida muhim huquqiy va institutsional islohotlar amalga oshirildi. 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ- 419 son "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston respublikasi qonuni qabul qilingan.

Ushbu qonunning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy asoslarni yaratish va tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni maqsad qilgan. Qonun davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va keng jamoatchilikning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirishga qaratilgan.¹ Shu bilan birga, qonun mansabdor shaxslarning javobgarligini belgilash, davlat boshqaruvi tizimini shaffof va

¹ [Korrupsiya - Vikipediya](#)

² [O'RQ-419-son 03.01.2017. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida](#)

³ [PF-6079-son 05.10.2020. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida](#)

⁴ [United Nations Office on Drugs and Crime](#)

hisobdor qilish hamda fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi.[2] Shuningdek, 2020–2030-yillarga mo'ljallangan “Milliy strategiya” ushbu yo'nalishda muhim dasturilamal hujjatlar hisoblanadi. Bu islohotlar natijasida davlat boshqaruvida ochiqlik, hisobdorlik, shaffoflik tamoyillarini keng joriy etish hamda fuqarolik jamiyati institutlari ishtirokini kuchaytirish borasida amaliy natijalar qo'lga kiritilmoqda.[3] Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi (2003-yil) doirasida O'zbekiston xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'ygan bo'lib, korrupsiyaga qarshi kurashishning ilg'or mexanizmlarini o'z tajribasiga tatbiq etmoqda. “Biz korrupsiyaga qarshimiz” degan g'oya bugungi kunda nafaqat shior, balki har bir fuqaro, har bir tashkilot uchun hayotiy zaruratga aylanmoqda. Chunki korrupsiyaga qarshi kurash halollik, adolat va qonun ustuvorligining kafolatidir.[4] Eng muhim islohotlardan biri 2020 yil 29 iyun kuni qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmon (PF–6013-son)dir. [5] Mazkur hujjatga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Agentlik prezidentga bo'ysunadi va parlament oldida hisobdor bo'lib, korrupsiya holatini tahlil qilish, siyosatni shakllantirish hamda xalqaro standartlarni joriy etish vazifalarini bajaradi. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning muhim yo'nalishlaridan biri davlat xizmatlarida raqamlashtirish va ochiqlikni oshirish hisoblanadi. “Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali” orqali ko'plab xizmatlar onlayn ko'rinishga o'tkazildi. Bu esa byurokratik to'siqlarni kamaytirib, inson omilini qisqartirdi hamda ochiqlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ochiq ma'lumotlar portali orqali esa davlat organlarining faoliyati bo'yicha shaffoflik oshirildi. Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida”gi Qonun, Prezidentning PF–5729-son Farmoni, [6] PF–5618-son Farmoni [7] kabi hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlar korrupsiyaning oldini olish, javobgarlikni kuchaytirish va fuqarolik jamiyatining faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

EASTERN EUROPE AND CENTRAL ASIA

UZBEKISTAN

Share how your country is doing

Score

32/100 [What does the CPI score mean?](#)


Rank

121/180

Score change

-1 since 2023

Score changes 2012 - 2024



2024-yilda e'lon qilingan korrupsiyani qabul qilish indeksi (CPI) natijalariga ko'ra, O'zbekiston 180 ta mamlakat ichida 32 ball to'plab, 121-o'rinni egalladi. Bu ko'rsatkich 2023-yilgi reyting bilan bir xil bo'lib, mamlakat o'z pozitsiyasini saqlab qoldi. Taqqoslash uchun, 2022-yilda O'zbekiston ushbu indeksda 126-o'rinda qayd etilgan edi. Transparency International tomonidan e'lon qilingan so'nggi ko'rsatkichlarga ko'ra, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar korrupsiyani qabul qilish indeksida turlicha natijalarni qayd etdi. Qozog'iston 93-o'ringa ko'tarilib, o'tgan yilga nisbatan 3 pog'ona yuqorilagan. Qirg'iziston esa 141-o'rinda bo'lib, reytingda 1 pog'onaga pasaygan. Tojikiston va Afg'oniston 162-o'rinda qayd etilib, har ikkisi 4 pog'ona pastga tushgan.

Turkmaniston esa 170-o'rinni egallab, o'tgan yilga nisbatan 1 pog'ona pasaygan.

² Shuningdek, O'zbekistonning reytingdagi o'rni yillar davomida asta-sekin yaxshilanib bormoqda. 2021-yilda mamlakat 2020-yilga nisbatan 6 pog'onaga ko'tarilib, 180 ta davlat orasida 140-o'rinni egallagan. 2020-yilda esa O'zbekiston korrupsiya darajasi bo'yicha reytingda 146-o'rinni qayd etgan edi. Ushbu natijalar so'nggi yillarda mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini ko'rsatadi.[8]

Shuningdek, taniqli shaxslar korrupsiya haqida o'z fikrlarini bayon etgan. Barak Obama fikricha, shaffof hukumat boshqaruvi va kuchli institutlar korrupsiyaga qarshi eng yaxshi quroldir, davlat boshqaruvi xalqning ishonchini oqlashi zarur deydi.[9] Mahatma Gandi bu salbiy illatga qarshi kurashishni har bir inson o'zidan boshlashi kerak, agarda har birimiz halollikni o'z hayot tamoyilimizga aylantirsak, jamiyatda korrupsiya o'z-o'zidan yo'qoladi deb ta'kidlab o'tgan.[10] Xalqaro tashkilotlar ham korrupsiya haqida o'z fikrlari haqida bayon etgan.

BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasida keltirilishicha, korrupsiya jamiyat poydevorini yemiradi, iqtisodiy rivojlanishni sekinlashtiradi va ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi deb bayon etilgan.[11] Transparency International ushbu tashkilotning asosiy maqsadi, korrupsiyani kuzatish va unga qarshi kurashish mexanizmlarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bu tashkilot korrupsiyani qonun ustuvorligini buzuvchi eng asosiy tahdid va shu bilan birga demokratiyani zaiflashtiradi, iqtisodiy resurslarni noto'g'ri yo'nalishga buradi deb hisoblagan. OECD tashkiloti korrupsiyani iqtisodiy o'sish uchun eng asosiy to'siq shuningdek, korrupsiya biznes muhitini zararli holatga keltiradi va molivaviy mablag'larni noto'g'ri ishlatadi deb ta'kidlagan. Xalqaro tashkilotlarning xulosalari shuni ko'rsatadiki, korrupsiyaga qarshi kurashish global miqyosda muhim ahamiyatga ega. Ular davlatlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qonunlarni mustahkamlashga, shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga va jamoatchilikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xabardorligini oshirishga chaqirgan.³

Xalqaro miqyosda ham ushbu jinoyatga qarshi islohotlar amalga oshirmoqda. Janubiy Koreya tajribasi bunga yorqin misoldir. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashish uchun Koreya Korrupsiyaga qarshi va fuqarolik huquqlari komissiyasi (ACRC) faoliyat yuritadi. Ushbu tashkilot davlat idoralarida korrupsiya xavfini baholaydi, tahlil qiladi va profilaktik choralar ko'radi. Shuningdek, davlat xizmatchilari uchun "Integrity Assessment" tizimi joriy etilgan bo'lib, u orqali korrupsiyaga moyillik darajasi aniqlanadi va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar ko'riladi. Natijada, Koreyada davlat xizmatlarining shaffofligi oshib, korrupsiya ko'rsatkichlari keskin kamaygan. Portugaliyada esa 2024-yilda korrupsiyaga qarshi qonunchilik keskin kuchaytirildi. Xususan, noqonuniy yo'l bilan olingan aktivlarni sud qarorisiz ham musodara qilish imkoniyati joriy etildi.

⁵ ПФ-5729-сон 27.05.2019. Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида

⁶ ПФ-5618-сон 09.01.2019. Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида

⁷ O'zbekistonning korrupsiya indeksidagi o'zgarishsiz qoldi

⁸ Remarks by President Obama at Open Government Partnership Meeting | whitehouse.gov

⁹ Gandhi on Corruption

Home - Transparency.org

¹¹ The Organisation for Economic Co-operation and Development | OECD

¹² Home | United Nations Development Programme

¹³ Home - Financial Times

¹⁴ Associated Press News: Breaking News, Latest Headlines and Videos | AP News

¹⁵ The Organisation for Economic Co-operation and Development | OECD

Bu esa korrupsionerlarning moliyaviy manbalarini cheklash va davlat manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi.[12] Ukrainada korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida mustaqil Milliy korrupsiyaga qarshi byuro (NABU) va Maxsus prokuratura idorasi tashkil etilgan. Ushbu idoralar siyosiy bosimdan mustaqil holda faoliyat yuritadi va korrupsiya holatlarini tergov qilish vakolatiga ega. Bu yondashuv xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlangan bo'lib, mamlakatdagi korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirgan.[13] Liberiyada davlat xizmatchilari uchun aktivlarni deklaratsiya qilish majburiyati kuchaytirildi.

2024-yilda 450 dan ortiq mansabdor shaxs deklaratsiyani taqdim etmagani uchun lavozimidan chetlashtirilgan. Bu amaliyot davlat boshqaruvida oshkoralik va javobgarlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ko'plab davlatlarda davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash uchun Integrity Pacts ya'ni "halol shartnomalar" tizimi keng joriy etilgan. Bu mexanizm orqali fuqarolik jamiyati vakillari davlat xaridlarini kuzatib boradi va korrupsiyaga qarshi jamoatchilik nazoratini ta'minlaydi.[14] Shuningdek, OECD Anti-Bribery Convention xalqaro darajada korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim hujjatlardan biridir. U xorijiy mansabdor shaxslarga pora berishni jinoyat sifatida belgilaydi va davlatlarni xalqaro hamkorlikda ishlashga majbur qiladi. Bugungi kunda ko'plab rivojlangan davlatlar ushbu konvensiyaga a'zo bo'lgan. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, korrupsiyaga qarshi kurashishda: mustaqil nazorat organlari faoliyati, shaffoflikni kuchaytirish, qattiq qonunchilik choralari joriy etish, fuqarolik jamiyatini jalb etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish asosiy omillardir. [15] O'zbekiston ham mazkur yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlarni amalga oshirib, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganib, milliy qonunchilik va institutsional tizimni mustahkamlashga intilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya bu jamiyat rivojlanishiga, iqtisodiyotga va xalq ishonchiga jiddiy zarar yetkazadigan illatdir. U hokimiyat yoki mansabni shaxsiy manfaat yo'lida suiiste'mol qilishni anglatadi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan BMT va Transparency International, korrupsiyani butun dunyo miqyosida xavfli muammo sifatida e'tirof etgan.

Rivojlangan davlatlar masalan, Janubiy Koreya va Portugaliya korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunlar va shaffof tizimlar orqali sezilarli natijalarga erishgan. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Maxsus qonun va agentlik tashkil etilgan bo'lsa-da, hali ham ayrim sohalarda korrupsiya xavfi yuqori darajada qolmoqda. Shuning uchun bu muammoni hal qilish uchun qonunchilikni kuchaytirish, shaffoflikni oshirish va xalqaro tajribadan keng foydalanish zarur.

Taklif sifatida raqamli boshqaruv tizimini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va javobgarlikni qat'iylashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu yo'l bilan mamlakatda korrupsiya darajasini kamaytirish va adolatli tizimni mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korrupsiya - Vikipediya
2. O'RQ-419-сон 03.01.2017. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida
3. PF-6079-сон 05.10.2020. "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida
4. United Nations Office on Drugs and Crime
5. ПФ-5729-сон 27.05.2019. Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида

6. ПФ-5618-сон 09.01.2019. Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни юксалтириш тизимини тубдан такомиллаштириш тўғрисида
7. O'zbekistonning korrupsiya indeksidagi o'zgarishsiz qoldi
8. Remarks by President Obama at Open Government Partnership Meeting | whitehouse.gov
9. Gandhi on Corruption
10. Home - Transparency.org
11. The Organisation for Economic Co-operation and Development | OECD
12. Home | United Nations Development Programme
13. Home - Financial Times
14. Associated Press News: Breaking News, Latest Headlines and Videos | AP News
15. The Organisation for Economic Co-operation and Development | OECD